

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrası professori D.D. Mamatkulovning Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalariga "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan "Shaharning chiqindilar muammosi" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Bugungi kunda urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi va sanoat korxonalarining kengayishi natijasida shahar chiqindilari muammosi dolzarb ekologik masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan o'tkazilgan "Shaharning chiqindilar muammosi" mavzusidagi ochiq dars o'z vaqtida tanlangan va amaliy ahamiyatga ega mavzu sifatida e'tirof etiladi.

"Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan tayyorlangan "Shaharning chiqindilar muammosi" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi zamonaviy ekologik muammolardan birini — chiqindilarni boshqarish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish masalalarini yoritishga qaratilgan.

Ishlanma mazmunan dolzarb, ilmiy asoslangan va metodik jihatdan puxta tayyorlangan bo'lib, u talabalarda ekologik fikrlashni shakllantirish, shahar infratuzilmasida chiqindilar muammosining sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularni kamaytirish yo'llarini izlashga yo'naltirilgan.

Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrası professori D.D. Mamatkulovning Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalariga "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan "Shaharning chiqindilar muammosi" mavzusidagi ochiq darsi uchun tayyorlangan ma'lumotlar barcha talablarga javob beradi.

**Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi
kafedrası professori**

Z.I. Izzatullayev

ning imzosini
tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi boshlig'i



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrası professori D.D. Mamatkulovning Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalariga "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan "Shaharning chiqindilar muammosi" mavzusidagi ochiq dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Mazkur ochiq dars ishlanmasi "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri — shahar chiqindilari muammosi mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, u talabalarga ekologik fikrlashni shakllantirish, chiqindilarni boshqarishning zamonaviy tamoyillari bilan tanishtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishda insonning mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan.

Dars ishlanmasi fan dasturi talablariga to'liq mos bo'lib, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar aniq belgilangan. O'qituvchi darsning maqsad va vazifalarini real ekologik muammolar asosida asoslab bergan, bu esa talabalarni mavzuga chuqur qiziqtirishga xizmat qilgan.

Mavzuning tanlanishi bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb — urbanizatsiya, sanoatlashuv va aholining ko'payishi natijasida chiqindilar hajmining ortib borishi global ekologik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun dars mazmuni nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Dars ishlanmasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida tayyorlangan. Dars tuzilmasida aniq bosqichlar, maqsadli vazifalar va faol o'qitish usullari o'z ifodasini topgan. Kirish bosqichida mavzuga kirish, maqsadni aniqlash, muammo qo'yish. Asosiy bosqichida chiqindilar muammosining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilish. Amaliy bosqichda esa talabalarni guruhlariga bo'lib, chiqindilarni kamaytirish bo'yicha g'oyalar ishlab chiqish, yakuniy bosqichda umumlashtirish, savol-javoblar va xulosa berilgan.

Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrası professori D.D. Mamatkulovning Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalariga "Shahar va sanoat ekologiyasi" fanidan "Shaharning chiqindilar muammosi" mavzusidagi ochiq darsi uchun tayyorlangan ma'lumotlar barcha talablarga javob beradi.

**Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti
Biologiya, ekologiya va dorivor
kafedrası professori**

X.T.Boymurodov